



**ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ASARI TIL
XUSUSIYATLARI**

*Namangan davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar fakulteti O‘zbek tili va
adabiyoti yo‘nalishi UZB-AU-25 guruhi
talabasi*

Egamberdiyeva Shahina

Ilmiy rahbar

Ibragimova Irodaxon

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek romanchiligining asoschisi , millatimiz faxri sanalgan Abdulla Qodiriyning “ O‘tkan kunlar “ romani til xususiyatlari tahlil qilinadi. Muallifning xalq tili va kitobiy tilni uyg‘unlashtirish mahorati ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar. “O‘tkan kunlar“, badiiy til vositalari, asar tili, xarakter, etnografik leksika.

Adibning o‘ziga xosligi uning asarlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Asarlarni oddiy matnlardan ajratib turuvchi eng muhim xususiyati uning badiiy tilidir. Asar ham barcha matnlar singari so‘zlardan tashkil topadi , ammo undagi so‘zlar adiblarning badiiy – estetik tafakkurini aks ettiradi. Shu tufayli yozuvchi o‘zining shaxsiy uslubidan kelib chiqib, ba’zi o‘rinlarda noodatiy so‘z va iboralardan foydalanadi hamda shu orqali boshqa ijodkorlardan ajralib turadi. “Abdulla Qodiriy roman qahramonlari tili xalqning so‘zlashuv uslubiga yaqin so‘z va iboralar , sodda , siqiq romandagi quyma jumlar bilan favqulodda tiniq fikrlarni ifodalaydi”. Shu bois romandagi so‘zlarning lisoniy xususiyatlarini o‘rganish o‘zbek tilshunosligi uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Abdulla Qodiriy qahramon tilini ham muallif nutqini ham mohirlik bilan ishlagan. Adib o‘z asarlarida turli xil badiiy tasvir vositalaridan (sifatlash , o‘xshatish , mubolag‘a) juda chiroyli tarzda foydalangan. Masalan, Otabek obrazi: og‘ir tabiatlik , ulug‘ g‘avdalik , ko‘rkam va oq yuzlik , kelishgan , qora ko‘zlik va endigina murti sabz urgan bir yigit. Asardagi bosh qahramonlardan biri bo‘lgan Otabekka qo‘llangan sifatlashlar uning qiyofasini , xarakter xususiyatlarini ochib bergan. Ya’ni bu yerdagi “og‘ir” so‘zi Otabekning bosiq va vazmin ekanligini ifodalagan. Bundan tashqari, adib o‘z tasvirida tarixiy



faktlarga , hatto ayrim shaxslar Xudoyorxon, Musulmonqul, Azizbek va boshqalarni tasvirlashga suyanganda holda , davr tavsifi “jamiyat hayotining poetik analizi” ni romanning markaziy qahramonlari Otabek va Kumushning taqdirini tasvirlash orqali beradi. Bu ayniqsa romanning bosh qahramonlari taqdiri uchun xarakterlidir. Otabek uning otasi Yusufbek Hoji, Kumushbibi va boshqalarning taqdiri orqali o‘quvchini o‘z davrining deyarli hamma ijtimoiy tabaqalari hayotiga olib kiradi.

Xon Xudoyorxondan boshlab qul Hasanligacha jamiyatning turli tabaqa vakillarining hayoti, bu davrda hukmdorlar va tobelar, xotinlar bilan erkaklar, yoshlar bilan keksalar orasidagi munosabatlar, kishilarning turmushi va ularning bir-biriga bo‘lgan munosabatlari asar davomida gavdalanadi. Abdulla Qodiriy xarakterlarning ishonchli va yorqin tasvirlanishiga ham alohida e‘tibor beradi. Xarakterlar tasvirida yozuvchi, hayot haqiqatiga mos ravishda ularning xilma-xilligi, bir-biriga o‘xshamasligini ko‘rsatishga intiladi va shu bilan birga hayotning rang-barang ekani haqida ham tasavvur uyg‘otadi. Bu adibning tildagi so‘zlardan qanchalik mohirlik bilan foydalanishining bir namunasidir.

Shuningdek, ijodkor milliylikni ifoda etuvchi so‘zlarni roman ichida shunchaki bezak emas , balki tarixiylikning asosiy ko‘rishlaridan biri sifatida qo‘llaydi. “Abdulla Qodiriy o‘zining tarixiy mavzudagi romanida XIX asr o‘zbek jamiyati hayotini jonli aks ettirish uchun milliy koloritga ega bo‘lgan so‘zlar , iboralar, etnografik terminlar va xalqona nutq elementlaridan keng foydalanadi”. Shu kabi so‘zlarning faol qo‘llanishi romanning badiiy-estetik qiymatini bir necha barobar oshiradi.

Yozuvchi tomonidan qo‘llangan “doppi”, “paranji”, “shoyi”, “tandir”, “mahalla”, “nikoh to‘yi”, “mashvarat” kabi o‘nlab leksik birliklar roman qahramonlarining hayot tarzini aniq ko‘rsatibgina qolmay, o‘sha davrning ijtimoiy-madaniy hayotini o‘quvchi tasavvurida tiklaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Abdulla Qodiriyning so‘z qo‘llash mahorati yuksak va o‘ziga xos.U tarixiy davrni tasvirlashda sun‘iylikka va ortiqcha bezakka yo‘l qo‘ymaydi. Xalqona iboralar, maqollar, hikmatli so‘zlar, hayotiy dialoglar romanga yanada o‘ziga xos joziba bag‘ishlaydi. Abdulla Qodiriy ijodining yuksak badiiy mahoratini badiiy asarda aks etuvchi so‘zlar misolida ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qodiriy. A . – O‘tkan kunlar. Toshkent : Yangi nashr. 2019
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/abdulla-qodiriyning-o-tkan-kunlar-romani-da-qo-llagan-ayrim-so-zlarning-lisoniy-xususiyatlari>



3. https://sg.docworkspace.com/d/sbTake6dOXYPzdNy_2zkhyr05ybqxqnglyz?sa=601.1074
4. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/o-tkan-kunlar-haqida-ba-zi-haqiqatlar>
5. <https://hp.jdpu.uz/index.php/hp/article/download/1906/1294/4643>
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-asaarlarning-o-ziga-xos-til-xususiya-tlari>